

SAID AHMADNING “QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYASIDA SADOQAT, MEHR VA IYMON

O‘ralova Sarvara

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Filologiya fakulteti, Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili yo‘nalishi talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371397>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi misolida inson hayotidagi mehr, sadoqat va iymon kabi qadriyatlar badiiy va hayotiy tarzda yoritiladi. Asarda onaning farzandiga bo‘lgan mehr-muhabbati, inson va hayvon o‘rtasidagi sadoqat, shuningdek, farzandning iymondan yuz o‘girishi orqali yuzaga kelgan ruhiy iztirob tasvirlanadi. Maqola hikoyadagi obrazlar, ularning ichki dunyosi va badiiy tafsilotlar orqali mazkur qadriyatlarning ahamiyatini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Ona obrazi, iymon, sadoqat, vafo, hadis, inson ruhiyati

Hikoya markazida keksa ona — Saodat aya turadi[2]. U umrining so‘nggi yillarini yurakdagi og‘riq va armon bilan o‘tkazmoqda. Uning yuragini kuydirgan narsa — o‘g‘li Bo‘rixonning dindan yuz o‘girishi, ya‘ni iymondan ayrilishidir.

Bir paytlar u farzandini imonli, halol, vijdonli inson bo‘ladi, deb orzu qilgan edi. Ammo Bo‘rixon harbiy xizmatga ketib o‘sha yerda, xristianlik diniga o‘tadi. Onasi uning bo‘ynidagi Xoch belgisini ko‘rishib chayon ko‘rgandek qo‘rqib ketadi. Ona va qizi Qumri Bo‘rixonning javonidan baxmalga o‘ralgan Xristianlarning muqaddas kitobi Injilni topib olishi, uning yuragiga “muz”dek og‘riq beradi. Bu muz — ona yuragining sinishi, iymoniga xiyonat qilgan farzandning dog‘idir. Qur‘oni karimdan bir oyat keladi: “Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar. (Baqara surasi, 217-oyat) Kampirning ko‘z yoshli sajdalari, Qur‘on tilovati, va “Bu bolani men emas, bo‘ri tuqqan”, degan og‘riqli so‘zi — onaning imonini yo‘qotgan farzand ustidan chekkan faryodidir. Shunga qaramay, u Allohdan o‘g‘li uchun kechirim so‘raydi, zero dindan chiqish eng og‘ir gunoh bunday insonlar haqida quyidagi qimmatli jumlaning qo‘llayman. “Imonidan kechganlarni “Murtad” deydi. Bu dunyosi va oxirati xarob bo‘ladi”. Lekin Bo‘rixon bir marta ham “dadam qani?” deb so‘ramaydi. Bu sahnalar onaning ichki iztirobini yanada chuqurroq ochadi[3].

Asar davomida kampirning hayoti so‘nib boradi. U haj amali qabul bo‘lgani haqida xabarni eshitadi va ikki kundan keyin vafot etadi. Bu — iymon bilan ketish, sabr va tavakkal ramzidir. Bu besh kunlik dunyoda hamma ham baxtli yashashga harakat qiladi, ming afsuski buni iloji yo‘qligini bu asardan anglab olish qiyin emas. Muqaddas Qur‘oni karimda ham “baxt” so‘zi bir marta tilga olingan u ham bo‘lsa jannatdagilardir. Qanchalik qiyin bo‘lmasin o‘g‘lidan ko‘ra it unga mehribon va sadoqatli edi. Ona uchun farzandning o‘rni boshqacha, chunki o‘z vujudidan bo‘lgan jigargo‘shasi dilini vayron qilib, eng og‘ir damlarida yelkadosh bo‘lmaganligi chin ma‘noda ayanchli vaziyat. Kampirning vafodor iti Qorako‘z egasining o‘limidan keyin uni izlab butun bolalarining uylarini kezadi. Nihoyat, kampirning ovozi magnitofondan eshitib, uni tirik deb o‘ylaydi. Ammo odamlar itni quturgan deb o‘ylab, otib tashlaydilar. Qorako‘z egasining ovozi kelayotgan tomonga yuzini burgancha jon beradi. Bu manzara asarning ruhini ochadi: sadoqat, vafodorlik, va Allohga sodiq bo‘lish — hayotning eng ulug‘ haqiqatidir. Bo‘rixon tirik bo‘lsa-da, onasining yuragida “o‘lik”, Qorako‘z esa

jismoniy o'lsa-da, sadoqati bilan “tirik” qoladi. Bu qarama-qarshilik orqali yozuvchi insoniy qadriyatlar haqida chuqur falsafiy fikr bildiradi.

Hikoyada sadoqat, mehr va iymon mavzusini yanada chuqurroq tahlil qilganda, asar inson ruhiyatining murakkabligini ochib beradi. Hikoya faqat ona va farzand, shuningdek inson va hayvon o'rtasidagi sadoqatni emas, balki jamiyat va diniy qadriyatlar bilan bog'liq murakkab ijtimoiy muammolarni ham yoritadi. Bo'rixonning iymondan yuz o'girishi nafaqat ona uchun shaxsiy tragediya, balki insonning axloqiy va ruhiy mas'uliyati bilan bog'liq savollarni yuzaga chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, hikoya o'quvchiga shaxsiy tanlovlar va ularning hayotiy oqibatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Asarda shuningdek, sadoqat va mehrning faqat birovga bo'lgan munosabat emas, balki insonning o'z qadriyatlariga, diniy va axloqiy e'tiqodlariga sadoqat bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Ona Saodat aya qiyin vaziyatlarda ham kechirimlilik va sabrni namoyon qiladi, bu esa hikoyaning ma'naviy qatlamini yanada boyitadi. Shu bilan birga, Qorako'zning vafodorligi va egasini izlashdagi matonati sodiqlikning cheksiz va universal tabiati haqida falsafiy mulohazalarni uyg'otadi.

Hikoya orqali muallif shuni ko'rsatadiki, iymon va sadoqat insonni faqat ruhiy jihatdan yuksaltirmaydi, balki uning jamiyatdagi axloqiy mavqeini ham mustahkamlaydi. Shuning uchun “Qorako'z Majnun” nafaqat badiiy asar, balki insoniy qadriyatlar, diniy e'tiqod va ma'naviyatni chuqur o'rganish uchun mustahkam asosdir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu hikoya iymon va sadoqat insonni yuksaltirishi, lekin undan yuz o'girishi — qalbni muzlatishi, kampirning dardli hayoti, Bo'rixonning iymondan ayrilishi, Qorako'zning sadoqati— bularning barchasi hayotiy saboq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxriddinova Sh., “Turkiy xalqlar adabiyotiga doir zamonaviy yondashuvlar, muammolar, omillar, yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878537> 299-301-betlar.
2. Said Ahmad “Qorako'z majnun”, “O'zbekiston”, T.: 2013. 240-bet
3. Amirqulov, S. (2025). LINGUISTIC ANNOTATION OF A CORPUS OF OFFICIAL STYLE TEXTS. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 3(5), 101-103.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Murtad>